23.	Talabalarning sport va jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun zarur sharoit yaratish.	1. Talabalarning sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun zarur sharoit yaratish. 2. Muntazam ravishda sport musobaqalarini o‘tkazish. 3. Jismoniy tarbiya va sportga doir tadbirlarni tashkil etish.	Doimiy Har yili reja-jadval asosida Doimiy	Oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari, grantlar, homiylik xayriyalari	Universitet *(A.Kirgizbayev)* Maktabdan tashqari ta’lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi *(M.Karabayev)*
24.	Yoshlar o‘rtasida O‘quv ilmiy-madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.	1. Yozgi maktablarni tashkil qilish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Yozgi maktablar bo‘yicha xalqaro loyihalar bazasini shakllantirish va ularda talaba-yoshlarning ishtirokini ta’minlash. 3. Yozgi maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	2023-yil 1-mart 2023-yil 1-may 2023-yil 1 -iyun	Oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari, grantlar, homiylik xayriyalari	Universitet *(A.Kirgizbayev)* Maktabdan tashqari ta’lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi *M.Karabayev)*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Huquqiy bilimlarni oshirish kuni”ni tashkil etish to‘g‘risida

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi yig‘ilishining 8-sonli bayoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-huquqiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha 2022-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”ning 27-bandi ijrosini ta’minlash hamda xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida **buyuraman:**

1. 2022-yil avgust oyidan boshlab har oyning birinchi juma kuni xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan “Huquqiy bilimlarni oshirish kuni” o‘tkazilishi belgilansin.

2. “Huquqiy bilimlarni oshirish kuni”ni joriy qilish va uni amalga oshirish Konsepsiyasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yuridik bo‘limi (M.Miraxmedov), Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho‘basi (L.Saliyev):

“Huquqiy bilimlarni oshirish kuni” doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangi qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan seminar-trening, mahorat darslari va boshqa tadbirlar o‘tkazsin;

Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi va bajarilgan ishlar haqida (2022-yil davomida) har oyning 10-sanasiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga axborot berib borilishini ta’minlasin.

4. Jamoatchilik ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) “Huquqiy bilimlarni oshirish kuni” doirasida o‘tkazilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida hamda vazirlikning veb-saytida keng yoritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 19-iyul,
234-son

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta‘limi vazirining
2022-yil 19-iyuldagi
234-sonli buyrug‘iga
ILOVA

“Huquqiy bilimlarni oshirish kuni”ni joriy qilish va uni amalga oshirish
KONSEPSIYASI

1. Tadbir maqsadi:

2022-yil 14-aprelda tasdiqlangan Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi yig‘ilishining 8-sonli bayoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining siyosiy-huquqiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha 2022-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi”ning 27-bandi ijrosini ta’minlash;

xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2. Huquqiy bilimlarni oshirish kuni:

2022-yil avgust oyidan boshlab har oyning **birinchi juma kuni.**

3. Tadbir o‘tkaziladigan joy:

Xalq ta’limi vazirligi markaziy apparati binosi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari, tarkibiy tuzilmalar videokonferensiya (ZOOM) orqali.

4. Tadbirni tashkil etish:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra davlat organi va tashkiloti faoliyatiga tegishli qonunchilikni targ‘ib qilish yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalq ta’limi vazirligi va uning tarkibiy tuzilmalaridagi yuridik xizmat tomonidan **“Huquqiy bilimlarni oshirish kuni”** quyidagicha onlayn va oflayn shaklda o‘tkaziladi:

seminar-treninglar;

mahorat darslari;

eng yaxshi huquqiy targ‘ibot materiallari tanlovlari;

boshqa tadbirlar.

5. Mavzular doirasi:

Xalq ta'limi vazirligi faoliyati, maqsadi va vazifalarini o'zida aks ettirgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Hukumat qarorlari va ichki lokal normativ hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish;

davlat xizmatchilari tomonidan o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni samarali bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ularning ish faoliyatida doimiy yuritiladigan hujjatlar, qonunchilik hujjatlari va ichki tartibga oid hujjatlarni tushuntirish;

xodimlarning mehnatini muhofaza qilishga oid belgilangan normalar va talablar bo'yicha tushuntirish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangi qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazish.

6. Amalga oshiriladigan ishlar:

"Huquqiy bilimjarni oshirish kuni"ni o'tkazish bo'yicha yuridik xizmat tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

davlat organlari faoliyatiga oid tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yorituvchi targ'ibot materiallari (annotatsiya, slayd, videorolik) tayyorlash va tizim tashkilotlariga yetkazish;

har oyning birinchi juma kuni seminar-trening va mahorat darslarini tashkil etish;

xodimlar o'rtasida har chorakda olingan bilimlarning natijadorligini aniqlash yuzasidan so'rovnoma o'tkazish.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Xalq ta’limi vazirligi tizimida o‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vazirligi tizimida O‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-iyuldagi 390-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tahminlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-iyuldagi 390-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) vazir o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlar, hududiy xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 60-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi huzurida davlat maktabdan tashqari ta’lim muassasasi shaklida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan o‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) tashkil etilganligi;

Markaz xodimlarining umumiy cheklangan soni 30 nafar (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan tashqari) etib belgilanganligi;

Markazga Jizzax viloyati Zomin tumani xalq ta’limi bo'limi mudiri tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod qilinadigan maktab direktorining kasbga yo‘naltirish bo‘yicha o‘rinbosari - Markaz direktori rahbarlik qilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Markazning vazifalari quyidagilar etib belgilansin:

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun kelajak kasblariga yo‘naltiruvchi to‘garaklar faoliyatini tashkil etish;

o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlaridan unumli va maqsadli foydalanish, ularning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish, zamonaviy fanlarni chuqur o‘rgatish uchun zarur shar-sharoitlar yaratish;

o‘quvchi-yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, axborot makonidagi turli tahdidlarga nisbatan sog‘lom immunitetni hosil qilish;

o‘quvchi-yoshlarning mustaqil tashabbus va shaxsiy g‘oyalarini ilgari surish, hayoti pozitsiyaga ega bolishini taminlashga yo‘naltirilgan mahorat darslarini hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish.

4. Maktabdan tashqari ta’lim, sport va turizmni tashkil etish

boshqarmasi (M.Karabayev)ga Strategik rivojlantirish va yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasi (Sh.Muxamedov), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (L.Magay), Ta’lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov) bilan birgalikda:

bir oy muddatda Markaz tuzilmasini, ustavini, xodimlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) ishlab chiqish va tasdiqlash;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda to‘garak yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislarni biriktirish, zarur o‘quv-uslubiy adabiyotlar hamda tegishli jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash va yangilab borish vazifalari yuklatilsin.

5. “Barkamol avlod” respublika bolalar maktabi (S.Mahmudova)ga Psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda:

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan kelishgan holda 2022-yil 1-avgustgacha to‘garaklarda o‘rgatiladigan kasb-hunarlarning o‘quv-rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;

to‘garaklrni zaruriy o‘quv qo‘llanmalar va ko‘rgazmali vositalar bilan ta’minlash;

to‘garak rahbarlariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida har chorakda bir marta o‘quvlar o‘tkazish;

o‘quvchi-yoshlar uchun to‘garaklar yo‘nalishlari bo’yicha tashkilotlarga amaliy ekskursiyalar tashkil etish vazifalari topshirilsin.

6. Jizzax viloyati xalq ta’limi boshqarmasi (D.Sadriddinova) Markaz direktori va to‘garak rahbarlarining bazaviy tarif stavkasi Xalq ta’limi muassasalari rahbarlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlarining “Barkamol avlod” bolalar maktabi direktori hamda to‘garak rahbarlari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkasiga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlasin.

7. Xalq ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish sho‘basi (Sh.Mashrapov) 2022-yil 1-sentabrdan boshlab Markaz direktori va to‘garak rahbarlarining mehnati va faoliyat samaradorligini baholash mezonlari (KPI) asosida har oyda rag‘batlantirib borsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari V.Rajapov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 22-iyun,
241-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 1-iyundagi 295-son qaroriga muvofiq 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qaroriga asosan o‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish (keyingi o‘rinlarda - o‘qishni ko‘chirish) bo‘yicha Xalq ta’limi vazirligining elektron xizmatlari portali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda - elektron platforma) orqali davlat xizmatlarini amalga oshirish bo‘yicha ma’muriy reglamenti (keyingi o‘rinlarda - ma’muriy reglament) tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. 2022-2023-o‘quv yilida elektron platforma orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda - umumta’lim maktablari)da o‘qishni ko‘chirish jarayonlari amalga oshiriladigan tuman va shaharlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2022-2023-o‘quv yilidan:

a) ro‘yxatga kiritilgan tuman va shaharlardagi umumta’lim maktablarida o‘qishni ko‘chirish, respublikaning boshqa tuman va shaharlaridagi maktablardan ro‘yxatga kiritilgan tuman va shaharlardagi umumta’lim maktablariga o‘qishni ko‘chirish elektron platforma orqali;

b) respublikaning boshqa tuman va shaharlaridagi umumta’lim maktablarida o‘qishni ko‘chirish jarayonlari Xalq ta’limi vazirining 2015-yil 2-iyundagi 13-mh-son buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 17-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2684)* bilan tasdiqlangan “O‘quvchilarni sinfdan sinfga va bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq belgilangan tartibda (keyingi o‘rinlarda - an’anaviy shaklda) umumta’lim maktablari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi;

o‘qishi ko‘chirilgan o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar vazirlikning Yagona elektron tizimiga kiritiladi;

d) umumta’lim maktabiga o‘qishni ko‘chirish jarayonlarini shaffof tarzda tashkil etishga umumta’lim maktabi **direktori shaxsan javobgar hisoblanadi;**

e) o‘qishni ko‘chirish jarayonlarining belgilangan tartibda ochiq va shaffof o‘tkazilishini ta’minlashga tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi mudirlari, qabul jarayonlarini nazorat qilib borishga hududiy xalq ta’limi boshqarmalarining birinchi rahbarlari **shaxsan mas’ul hisoblanadi.**

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarmalar)ga:

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ro‘yxatdagi tuman va shaharlarda elektron platforma orqali o‘qishni ko‘chirish jarayoni amalga oshiriladigan umumta’lim maktablari to‘g‘risida ota-onalar va pedagogik jamoani xabardor etish;

o‘qishni ko‘chirish jarayonlarini amalga oshirishda tasdiqlangan ma’muriy reglament talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;

an’anaviy shaklda o‘qishni ko‘chirish jarayonlari amalga oshirilganda o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlarni umumta’lim maktablari tomonidan shu kunning o‘zida vazirlikning Yagona elektron tizimiga kiritilishini ta’minlash;

hududiy boshqarmalar hamda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlarida o‘qishni ko‘chirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha mas’ul xodim belgilash hamda mazkur masalada har bir fuqaro (ota-ona)ning murojaatlarini tezkorlik bilan ko‘rib chiqish;

har bir umumta’lim maktablari rahbarlarini o‘qishni ko‘chirish jarayonlarini shaffof o‘tkazish va qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ymasligi to‘g‘risida kafolat xatlarini olish vazifalari yuklatilsin.

5. Ta’limni raqamlashtirish boshqarmasi (S.Raximboyev), Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi (A.Haydarov) 2022-yilning 31-avgustiga qadar:

tasdiqlangan ma’muriy reglament talablariga muvofiq o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha davlat xizmatlari amalga oshiriladigan elektron platformalarni takomillashtirish hamda boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, texnik topshiriqlar va texnologik yo‘riqnomani tasdiqlash;

elektron platformadan foydalanish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, tizimdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar (taqdimot, videorolik) ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov):

2022-2023-o‘quv yilida umumta’lim maktablarida o‘qishni ko‘chirish jarayonini muvofiqlashtirib borsin;

o‘quv yili yakunida o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha 2023-2024-o‘quv yilida davlat xizmati ko‘rsatiladigan maktablar tarmog‘ini kengaytirish yuzasidan vazirlik rahbariyatiga taklif kiritsin.

7. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) buyruqning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

8. Devonxona (D.Jsxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev va vazir o‘rinbosari R.Karimjonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 12-avgust,
267-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2022-yil 3-avgustdagi majlisining 2-son bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2022-yil 3-avgustdagi majlisining 2-son bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining takliflariga asosan Xalq ta’limi vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarga ilovaga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilinishi uchun tavsiyanomalar berilsin.

3. Vazir o‘rinbosari (T.Komilov)ga nomzodlarga tavsiyanomalarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishini nazorat qilish va hududiy xalq ta’limi bo‘linmalarini xabardor qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalariga tavsiyanoma olgan xodimlarni xabardor qilish hamda ularga amaliy yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T. Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B. Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 19-avgust,
275-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrdagi 414-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasining tushuntirish xati”ga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish, Respublika ta’lim markazining Ijtimoiy fanlar bo‘yicha 2022-yil 22-avgustdagi Ilmiy-metodik kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishi bayonnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022-yil 19-maydagi 3/1255-1184-sonli xati va hududiy amaliyotchi o‘qituvchilarning takliflaridan kelib chiqib **buyuraman:**

1. Respublika ta’lim markazi Ilmiy-metodik kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishi bayonnomasida ma’qullangan Milliy o‘quv dasturi doirasida **“O‘zbekiston tarixi”** fani o‘quv soatlari hajmi haftasiga **2 soatdan, “Jahon tarixi”** fani o‘quv soatlari hajmi haftasiga **1 soatdan** o‘qitilishi bo‘yicha bergan tavsiyasiga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrdagi 414-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi tushuntirish xati”ning **4-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. **“Tarix”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-sinfda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, 8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 1 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 2 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi”.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalariga:

bir kun muddatda ushbu buyruqni barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrdagi 414-sonli buyrug‘i bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarni mazkur buyruqqa muvofiq o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 26-avgust,
283-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-avgustdagi 472-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi 472-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Xorazm viloyati xalq ta’limi boshqarmasi boshliqlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini keytering usulida tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-4-sinf o‘quvchilarini ovqatlantirilishiga qo‘yiladigan asosiy talablar:

o‘quvchilarni keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi;

keytering tashkiloti tomonidan tayyor taomlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishni tashkil etish tartibi;

keytering usulida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarni tanlovini tashkil etish hamda o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

keytering tashkiloti tomonidan yetkazib berilgan taomlar tarkibi va sifati ustidan doimiy nazoratni ta’minlash tartibi nazarda tutilgan.

b) Moliya vazirligi har yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-4-sinf o‘quvchilarini keytering usulida bepul ovqatlantirish uchun zarur mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda nazarda tutishi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari 1-4-sinf o‘quvchilariga keytering xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan yetkazib berilgan oziq-ovqatlar hisobi, hisoboti hamda kunlik taomnomaning tarkibi Xalq ta’limi vazirligining “kundalik.com” ta’lim platformasi orqali amalga

oshirilishi;

keytering tashkiloti umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining oshxonasidan foydalanmagan holda o‘z imkoniyatlari doirasida tayyor taomlarni ishlab chiqarish va umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazib berish orqali ovqatlantirishni tashkil etilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. AKT infratuzilmasini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘limi (A.Raxmankulov) “kundalik.com” ta’lim platformasidan foydalangan holda 2022-2023-o‘quv yilida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining davomatiga qarab oziq-ovqat bilan ta’minlash hisobini yuritish uchun tegishli tartib ishlab chiqsin.

4. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali xalq ta’limi muassasalarida o‘quvchilarni sog‘lom ovqatlantirish yuzasidan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish sho‘basi (X.Turaxodjayev)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi yuzasidan tasdiqlangan jadval asosida har oyda o‘rganishlar tashkil etish;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan birgalikda ikki oy muddatda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda keytering usulida o‘rta ta’lim muassasalari 1-4-sinf o‘quvchilarini sog‘lom ovqatlantirish taomnomasini qayta ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar uyushmasi bilan birgalikda lozim bo‘lgan taqdirda, sohaga oid mutaxassislarni jalb qilgan holda keytering tashkiloti faoliyati ustidan doimiy monitoring olib borilishini nazorat qilish;

keytering tashkilotini tanlab olish uchun texnik-talabni ishlab chiqib, tasdiqlash, shuningdek, mazkur texnik-talablarga ko‘ra xarid qilish tartib-taomillari asosida o‘tkaziladigan tanlov (tender) yakunlarini amalga oshirilishi uchun tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Xorazm viloyati hokimligiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Yuridik bo‘lim (M.Miraxmedov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qabul qilingan vazirlikning ichki normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish sho‘basi (X.Turaxodjayev), Buxgalteriya hisobi va

hisoboti boshqarmasi (J.Shokirov) sanitariya-gigiyena me'yorlaridan kelib chiqib, bir mahal oziq-ovqat bilan ta'minlashning o'rtacha narxi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda har o'quv yili uchun tasdiqlatish choralarini ko'rsin.

Bunda, o'rtacha narx sanitariya-gigiyena me'yorlarida belgilangan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini tegishli hududdagi mahsulotlarning o'rtacha bozor narxiga ko'paytirgan holda aniqlanishi inobatga olinsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri va Xorazm viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i umumiy o'rta ta'lim muassasalari 1-4-sinf o'quvchilarini sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda Qaror bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida ish yuritishi, o'quvchilarga ovqat tarqatilishi bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga va o'quvchilarning kunlik davomatlari to'g'ri shakllantirilishiga **shaxsan mas'ul va javobgar** ekanliklari belgilab qo'yilsin.

9. Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (B.Axmedov) va Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho'basi (L.Saliyev) 2022/2023-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4-sinflari o'quvchilarini bepul ovqatlantirishni tashkil etishda korrupsiyaviy omillarning oldini olish ustidan nazorat o'rnatsin.

10. Devonxona (D.Jsxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo'linmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Xorazm viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari I.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B. Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 29-avgust,
284-son

Kiritildi:	Kelishildi:
Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish Vazirning birinchi o‘rinbosari va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish sho‘basi mudiri X.Turaxodjayev	Vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev
	Vazir o‘rinbosari I.Djurayev
	Vazir o‘rinbosari T.Komilov
	Ijro etuvchi apparat boshlig‘i O.Egamberdiyev
	Yuridik bo‘lim M.Miraxmedov
	Vazir maslahatchisi N. Mamaraimova
	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi boshlig‘i B.Axmedov
	Korrupslyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga-oshirish sho‘basi U.Saliyev
	Moliyalashtirish va buxgalteriya hisobi boshqarmasi boshlig‘i J. Shokirov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringi tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2019-yil 19-fevraldagi 146-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’lim-tarbiyaning samarali usullari hamda umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirishini doimiy nazorat qilish, davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishi, o‘quvchilarning bilimi va ta’lim sifatiga ta’sir qiladigan omillarni aniqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda - umumta’lim maktablarida) 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab Milliy o‘quv dasturi asosida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, standartlashtirilgan nazorat materiallari asosida tashqi va ichki monitoringi jarayonlarini o‘tkazsin.

2. Quyidagilar:

umumta’lim maktablarida ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish bo‘yicha Xalq ta’limi vazirligining Ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

umumta’lim maktablarida ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish rejasi 2-ilovaga muvofiq;

umumta’lim maktablarida ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish departamenti (L.Xo‘jaqulov), Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

har chorak Milliy o‘quv dasturi asosida umumta’lim maktablarida davlat ta’lim standartlari va talablarining bajarilishi, o‘quvchilarning bilimi va ta’lim sifatiga ta’sir qiladigan omillarni aniqlash maqsadida fanlardan standartlashtirilgan nazorat savollari bankini shakllantirish;

zarur hollarda ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish uchun tayyorlangan materiallarni tajriba-sinov, validlik hamda ishonchliligini aniqlash uchun aprobatsiyadan o‘tkazish;

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda pedagoglarning kasbiy rivojlanishi hamda o‘quv metodik materiallardan foydalanish darajasining ta’lim sifatiga ta’sirini tahlil qilish;

xalqaro tajribalar asosida axborot texnologiyalaridan foydalangan

holda monitoring natijalariga ko‘ra ta’lim jarayonidagi bo‘shliqlarni aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va o‘quv jarayonlarini rivojlantirish;

ta’lim sifati monitoringi jarayonini sifatli, xolisona va adolatli o‘tkazilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Ta’lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish departamenti (L.Xo‘jaqulov), Xalqaro aloqalar va investitsiyalari jalb qilish boshqarmasi (S.Sirojov) USAID xalqaro taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikda 2022-2023-o‘quv yili davomida 1-4 sinflar uchun o‘qish savodxonligi va matematik ko‘nikmalarni o‘rganishga oid tadqiqotlarni amalga oshirsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan monitoring natijalari qoniqarsiz bo‘lganda umumta’lim maktablari rahbarlari va pedagoglariga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash sifatida foydalanish qat’iy ravishda taqiqlansin.

6. Ijro intizomi boshqarmasi (J. Mominkulov) buyruqda belgilangan topshiriqlar ijrosini mas’ullar tomonidan o‘z vaqtida bajarilishini qat’iy nazoratga olsin.

7. Devonxona (D.Jsxakova) ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo‘limlari, hududiy xalq ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **B.Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 11-oktabr,
313-son

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish bo‘yicha Xalq ta’limi vazirligining ISHCHI GURUH TARKIBI

1. L.Xo‘jaqulov Ta’lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish departamenti direktori, Ishchi guruhi raisi

2. D.Jslamova - Ta’lim sifati monitoringi boshqarmasi boshlig‘i rais o‘rinbosari

3. B.Urunov - Xalq ta’limi vazirligi Ta’lim sifati monitoringi boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib A’zolar:

4. A.Dauletbaev - O‘quv jarayonini metodik jihatdan ta’minlashni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

5. G.Toshmirzayeva - Ta’lim sifati monitoringi boshqarmasi bosh mutaxassisi

6. G.Hamrayeva - Ta’lim sifati monitoringi boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

7. I.Tillaboyev - Respublika ta’lim markazi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

8. N.Sadullayeva - Respublika ta’lim markazi Filologiya va chet tillarni o‘qitishni rivojlantirish bo‘limi metodisti

9. T.Nurmetov - Xorazm viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Ta’lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

10. Z.Soliyeva - O‘zbekiston Respublikasidagi Trayangl tadqiqot institutining filiali O‘zbekiston barkamollik uchun ta’lim dasturi bosh direktori o‘rinbosari

11. Lavozimiga - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, ko‘ra Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari Ta’lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshliqlari

Izoh: Ishchi guruh a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda komissiya tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

Xalq ta'limi vazirining
2022-yil 11-oktabrdagi
313-sonli buyrug'iga
ILOVA

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGINI O'TKAZISH REJASI

Chorak	Sinfi				
I chorak*	4-sinf	**1-blok** (4 A- sinf) Ona tili Matematika Xorijiy til	**2-blok** (4 B - sinf) O'qish Rus tili Tabiatshunoslik	**3-blok** (4 V - sinf) Matematika Tabiatshunoslik O'qish	**4-blok** (4 G - sinf) Ona tili Matematika Xorijiy til
	8-sinf	**1-blok** (8 A- sinf) Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	**2-blok** (8 B- sinf) Biologiya Kimyo Rus tili	**3-blok** (8V- sinf) Fizika Geografiya Ona tili	**4-blok**(8G- sinf) Tarix Informatika Matematika
	9-sinf	**1-blok** (9 A- sinf) Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	**2-blok** (9 B- sinf) Biologiya Kimyo Rus tili	**3-blok** (9 V - sinf) Fizika Geografiya Ona tili	**4-blok** (9 G - sinf) Tarix Informatika Matematika
II chorak**	5-sinf	**I-blok** (5 A- sinf) Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	**2-blok**(5 B-sinf) Ona tili va adabiyot Biologiya Rus tili	**3-blok** (5 V - sinf) Matematika Geografiya Xorijiy til	**4-blok** (5 G- sinf) Tarix Informatika Matematika
	10- sinf	**1-blok** (10 A-sinf) Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	**2-blok** (10 B- sinf) Biologiya Kimyo Rus tili	**3-blok** (10 V- sinf) Fizika Geografiya Ona tili	**4-blok** (10 G- sinf) Tarix Informatika Matematika
	11- sinf	**1-blok** (11 A - sinf) Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	**2-blok(II** B-sinf) Biologiya Kimyo Rus tili	**3-blok**(2 V-sinf) Fizika Geografiya Ona tili	**4-blok**(11 G- sinf) Tarix Informatika Matematika

IIIchorak* **	**3-sinf**	**1-blok** (4 A- sinf)	**2-blok** (4 B- sinf)	**3-blok** (4 V- sinf)	**4-blok** (4 G - sinf)
		Onatili va o'qish savodxonligi Matematika Xorijiy til	Ona tili va o'qish savodxonligi Rus tili Tabiiy fan (Science)	Matematika Tabiiy fan (Science) Ona tili va o'qish savodxonligi	Ona tili Ona tili va o'qish savodxonligi Matematika Xorijiy til
	6-sinf	**I-blok** (6 A - sinf)	**2-blok** (6 B- sinf)	**3-blok** (6 V- sinf)	**4-blok** (6 G - sinf)
		Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	Tabiiy fan (Science) Tarix Rus tili	Ona tili va adabiyot Tabiiy fan (Science) Informatika	Tarix Tabiiy fan (Science) Matematika
	7-sinf	**I-blok** (7 A- sinf)	**2-blok** (7 B - sinf)	**3-blok** (7 V- sinf)	**4-blok** (7 G- sinf)
		Ona tili va adabiyot Matematika Xorijiy til	Biologiya Tarix Rus tili	Fizika Geografiya Ona tili	Tarix Informatika Matematika
IV chorak**	**5-7- sinf**	Musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya (10 tadan topshiriq)			
	2-4-sinf	Musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya (5 tadan topshiriq)			
	2-7-sinf	Musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya			

Izoh: *-I chorak - noyabr
- IIchorak - dekabr *-III chorak - mart
****- IVchorak - may

Xalq ta‘limi vazirining
2022-yil 11-oktabrdagi
313-sonli buyrug‘iga
ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish TARTIBI

Mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-fevraldagi 146-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi to‘g‘risidagi Nizom” talablari ijrosini ta’minlash, umumta’lim maktablarida davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishi, o‘quvchilarning bilimi va ta’lim sifatiga ta’sir qiladigan omillarni aniqlash asosida ishlab chiqilgan.

Ta’lim sifati monitoringi o‘quv yili davomida har chorakda vazirlik tomonidan tasdiqlangan buyruqning 1-ilovasiga muvofiq reja asosida xalq ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarida amalga oshiriladi.

Respublika ta’lim markazi har bir chorakda o‘tkaziladigan ta’lim sifati monitoringi uchun test spetsifikatsiyalarini ishlab chiqadi. Test o‘tkazuvchilar uchun yo‘riqnomada test spetsifikatsiyasi, testning mazmuni, tartibi, baholash mezonlari o‘z aksini topadi.

O‘quvchilar nazorat ishlarini bajarganlaridan so‘ng, ta’lim sifati monitoringi jarayoniga fan o‘qituvchilari ham jalb etiladi.

Vazirlikning ishchi guruhi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi umumta’lim muassasalarida hamda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlarida o‘tkazilgan ta’lim sifati monitoringi natijalari asosida tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydi va aniqlangan bo‘shliqlar metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun Respublika ta’lim markaziga taqdim etadi.

Fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish tahlil qilinadi, tahlil natijalariga ko‘ra o‘zlashtirilishi murakkab mavzular yuzasidan Respublika ta’lim markazining Ishchi guruhi tomonidan Tayanch maktablarda sayyor o‘quvlar tashkil etiladi.

O‘quv yilining birinchi choragi bo‘yicha ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish tartibi

O‘quv yilining birinchi choragi yakuni bo‘yicha ta’lim sifati monitoringi jarayoniga 4-, 8- va 9-sinf o‘quvchilari jalb qilinadi. Har bir hududda:

4-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 30 talik: 1-blok (ona tili va o‘qish savodxonligi, matematika, xorijiy til), 2-blok (matematika, tabiatshunoslik, ona tili va o‘qish savodxonligi) har bir fan bo‘yicha 10 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

8-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili va adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (biologiya, kimyo, rus tili) va 3-blok (fizika, geografiya, ona tili), 4-blok (tarix, informatika, matematika) fanlaridan har bir fan bo‘yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

9-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (biologiya, kimyo, rus tili) va 3-blok (fizika, geografiya, ona tili), 4-blok (tarix, informatika, matematika) fanlaridan har bir fan bo‘yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

Test sinovi bajarish uchun 4-sinflarda monitoring o‘tkaziladigan fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 60 daqiqa), 8- va 9-sinflarda fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 90 daqiqa) vaqt beriladi.

Barcha blok fanlarini qamrab olish maqsadida sinf o‘quvchilari soniga qarab guruhlar shakllantiriladi.

O‘quv yilining ikkinchi choragi bo‘yicha ta’lim sifati monitoringini o‘tkazish tartibi

O‘quv yilining ikkinchi choragi yakuni bo‘yicha ta’lim sifati monitoringi jarayoniga 5-, 10- va 11-sinf o‘quvchilari jalb qilinadi. Har bir hududda:

5-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 30 talik: 1-blok (ona tili adabiyot, malematika, xorijiy til), 2-blok (ona tili adabiyot, botanika, rus tili), 3-blok (matematika, geografiya, xorijiy til), 4-blok (tarix, informatika, matematika) fanlaridan har bir fan bo‘yicha 10 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

10-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili va adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (biologiya, kimyo, rus tili), 3-blok (fizika, geografiya, ona tili), 4-blok (tarix, informatika, matematika) fanlaridan har bir fan bo‘yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

11-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili va adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (biologiya, kimyo, rus tili), 3-blok (fizika, geografiya, ona tili), 4-blok (tarix, informatika, matematika) fanlaridan har bir fan bo‘yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o‘tkaziladi.

Test sinovi bajarish uchun 5-sinflarda monitoring o‘tkaziladigan fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 60 daqiqa), 10-11-sinflarda fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 90 daqiqa) vaqt beriladi.

Barcha blok fanlarini qamrab olish maqsadida sinf o‘quvchilari soniga qarab guruhlar shakllantiriladi.

O‘quv yilining uchinchi choragi bo‘yicha ta’lim sifati monitoringini o‘tkazishtartibi

O‘quv yilining uchinchi choragi yakuni bo‘yicha ta’lim sifati monitoringi jarayoniga 3-, 6- va 7-sinf o‘quvchilari jalb qilinadi.

3-sinf o‘quvchilaridan 2 variantda 30 talik: 1-blok (ona tili va o‘qish

savodxonligi, matematika, xorijiy til), 2-blok (matematika, Tabiiy fan (Science), ona tili va o'qish savodxonligi) har bir fan bo'yicha 10 tadan test topshiriqlari shaklida o'tkaziladi.

6-sinf o'quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili va adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (Tabiiy fan (Science), tarix, rus tili), 3-blok (ona tili va adabiyoti, Tabiiy fan (Science), informatika), 4-blok (tarix, Tabiiy fan (Science), matematika) har bir fan bo'yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o'tkaziladi.

7-sinf o'quvchilaridan 2 variantda 45 talik: 1-blok (ona tili va adabiyoti, matematika, xorijiy til), 2-blok (biologiya, kimyo, rus tili), 3-blok (fizika, geografiya, ona tili), 4-blok (tarix, informatika, matematika) har bir fan bo'yicha 15 tadan test topshiriqlari shaklida o'tkaziladi.

7-sinf o'quvchilari uchun nazorat materiallari tayyorlashda Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarning ta'minlangan bo'lishi ehtimoli hisobga olinadi hamda shunday maktablar uchun alohida nazorat materiallari tayyorlanadi.

Test sinovi bajarish uchun 3-sinflarda monitoring o'tkaziladigan fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 60 daqiqa), 6- va 7-sinflarda fanlardan har bir test savoliga 2 daqiqadan (umumiy 90 daqiqa) vaqt beriladi (Milliy o'quv dasturi asosidagi darsliklar bo'yicha o'tkaziladigan monitoring vaqti spetsifikatsiyalarda alohida ko'rsatiladi).

Barcha blok fanlarini qamrab olish maqsadida sinf o'quvchilari soniga qarab guruhlar shakllantiriladi.

O'quv yilining to'rtinchi choragi bo'yicha ta'lim sifati monitoringini o'tkazish tartibi

O'quv yilining yakuni bo'yicha ta'lim sifati monitoring jarayoniga 2-7-sinf o'quvchilari amaliy fanlardan (musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya) jalb qilinadi.

2-4-sinf o'quvchilaridan 2 variantda 20 talik (musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya) fanlaridan har bir fan bo'yicha 5 tadan topshiriqlar shaklida o'tkaziladi.

5-7-sinf o'quvchilaridan 2 variantda 40 talik (musiqa, rasm, texnologiya, jismoniy tarbiya) fanlaridan har bir fan bo'yicha 10 tadan topshiriqlar shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim sifati monitoringini o'tkazish tartibi aprobatsiyajarayonlariga, tajriba-sinov o'tkaziladigan umumta'lim maktablariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimida davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

a) Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari;

Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom tasdiqlanganligi;

b) Odob-axloq qoidalari talablarining buzilishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi odob-axloq komissiyasining tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Vazirlik markaziy apparati xodimlari o‘z mehnat faoliyatini amalga oshirishda va xizmat vazifalarini bajarish jarayonida odob-axloq qoidalari talablariga so‘zsiz amal qilinishini ta’minlasin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (B.Xo‘jaqulov), vazirlikning Kasaba uyushmasi qo‘mitasi (M.Karabayev), Yuridik bo‘lim (M.Miraxmedov)ga:

vazirlik markaziy apparati xodimlarini odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish;

ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa hujjatlarni ushbu Qarorga

muvofiqlashtirish;

2022-yil 1-noyabrga qadar ushbu Qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi to‘g‘risida batafsil axborotni tasdiqlangan hujjatlarni ilova qilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Yuridik bo‘lim (M.Miraxmedov) bir oy muddatda mazkur Qarorning mazmun-mohiyatini vazirlik markaziy apparati xodimlari o‘rtasida tushuntirish maqsadida o‘quv-seminarlari tashkil etsin.

7. Vazirning nazorat-huquqiy xizmati (O.Muxtarov), Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho‘basi (I.Saliyev) vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilib borsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta‘limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari mudirlariga:

xodimlarni odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish hamda ushbu qoida talablariga rioya qilinishini ta’minlash;

xodimlar o‘rtasida Qarorning mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida o‘quv-seminarlar tashkil etish;

Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni va komissiya tarkibini tasdiqlash;

ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa hujjatlarni ushbu buyruqqa muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **B. Saidov**

Toshkent sh.,
2022-yil 21-oktabr,
329-son

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta‘limi 21-oktabrdagi
329-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq QOIDALARI

1-bob. Umumiy qoidalar

1.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloqi qoidalari (keyingi o‘rinlarda — Odob-axloq qoidalari) Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi davlat fuqarolik xizmatchilarining (keyingi o‘rinlarda — davlat xizmatchilari) kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubining qoidalarini belgilaydi.

Odob-axloq qoidalari davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

2. Davlat xizmatchilari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishi shart:

qonuniylik;

Vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funksional vazifalarini to‘liq bajarish, ijro intizomiga qat’iy rioya etish;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

korrupsiyaviy holatlarga murosasiz munosabatda bo‘lish va qarshi kurashish;

xizmat sirini qat’iy saqlash;

mansab vakolatlarini suiiste’mol qilmaslik;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

3. Davlat xizmatchilari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariga amal qilishi lozim:

davlat xizmatining obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish;

mas’uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;

murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko‘maklashish;

xushmuomalalik, e’tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg‘otish;

oilasida sog‘lom muhitni ta’minlab, oila a’zolariga doimiy g‘amxo‘r bo‘lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat’i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo‘lish;

jamiyatda axloqning umume’tirof etilgan qoidalariga amal qilish.

4. Davlat xizmatchilari o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Xalq ta‘limi vazirligi Hay’ati qarorlariga, Xalq ta‘limi vazirining buyruqlari va ko‘rsatmalariga, ushbu Odob-axloq qoidalariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Davlat xizmatchilari Odob-axloq qoidalariga rioya qilish majburiyatiga, fuqarolar esa davlat xizmatchilaridan mazkur qoidalarga mos bo‘lgan kasbiy madaniyatni talab qilish huquqiga ega.

6. Davlat xizmatchilarining Odob-axloq qoidalariga rioya etishi ularning faoliyati hamda xizmatdagi axloqini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Davlat xizmatchilari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi holati ularni kelgusida yuqori lavozimlarga tayinlash va rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

2-bob. Kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalari

7. Davlat xizmatchilari:

fuqarolarning jinsi, irqi, millati, fuqaroligi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi kamsitilishiga olib keluvchi ta’sir choralari va harakatlar (harakatsizlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;

halol, adolatli va kamtar bo‘lishi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala, vazmin va samimiy munosabatni namoyish qilishi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qarorlarni qabul qilishda qonuniylikni, adolatlilikni va shaffoflikni ta’minlashi;

davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini pasaytiradigan harakatlar (harakatsizlik)dan tiyilishi;

o‘zining xatti-harakati va axloqi tufayli jamoatchilikning tanqidiga uchramaslik choralarini ko‘rishi, tanqid uchun ta’qibga yo‘l qo‘ymasligi, asosli va konstruktiv tanqiddan o‘z faoliyatidagi kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lida foydalanishi;

vazirlik tizimidagi hududiy bo‘linmalar, tashkilotlar va muassasalarga, davlat xizmatchilari va boshqa shaxslarga o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda shaxsiy masalalar yuzasidan ta’sir o‘tkazmasligi;

o‘z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg‘alar olmasligi;

davlat mulkining but saqlanishini ta’minlashi, o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;

xizmat intizomiga qat’iy rioya qilishi, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanishi;

aholining davlat xizmatlari iste’molchisi sifatidagi talablariga muvofiq doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirib borish choralarini ko‘rishi;

qonun bilan intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan huquqbuzarlik va boshqa xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi;

kasb etikasi va ishchanlik uslubiga rioya etishi;

siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari manfaatlari yo‘lida xizmat mavqeyi va imkoniyatlaridan foydalanmasligi kerak.

8. Davlat xizmatchilari o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlardan ular mehnat vazifasini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanishni talab qilishi, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishga da’vat etishi yoki majburlashiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3-bob. Xizmat faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari

9. Davlat xizmatchilari xizmat faoliyati davomida quyidagilarga majbur:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga so‘zsiz rioya etishi;

mamlakat sha’nini e’zozlash, davlat siyosatiga sodiq bo‘lish;

tashqi siyosat sohasida davlat manfaatlarini qat’iy himoya qilish;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste’molchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy asosda oshirish;

yuqori davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga biron-bir shaxs, guruh yoki idoralar manfaati nuqtai nazaridan yondashmaslik hamda ularning manfaatlari ifoda etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi

murosasizlik bilan kurashish;

xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday turdagi sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;

davlat xizmatchilari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar haqida, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o‘zining rahbariga zudlik bilan ma’lum qilish;

chet el fuqarolari bilan alohida belgilangan tartibga zid ravishda bevosita yoki boshqa shaxslar orqali muloqotga kirishmaslik;

o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmaslik, ularning ta’siridan saqlanish, fuqarolar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish;

o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan saqlanish;

davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan va xizmatga oid boshqa ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rish, ulardan qonunga zid ravishda foydalanmaslik;

axborotlarni tarqatish qoidalariga rioya qilish, Internet jahon axborot tarmog‘i va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta’minlashning belgilangan tartibiga amal qilish;

biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta’minlash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishining oldini olish choralarini ko‘rish;

ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar faoliyatini muhokama qilmaslik, axloqqa zid iboralarni ishlatmaslik, mamlakatda amalga oshirilayotgan, shu jumladan xalq ta’limi sohasida islohotlarga nisbatan odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan materiallarni joylashtirmaslik;

fuqarolar va hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiruvchi ma’lumotlar, tuhmat, ig‘vo va uydirmalarni tarqatmaslik;

mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qafiy rioya etish;

o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘ lish;

jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash choralarini ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish;

mehnat jamoasida ishchanlik muhitini shakllantirish va uni mustahkamlashga ko‘maklashishi;

mehnat jamoasida hamkasblarining sha’ni va qadr-qimmatini

obro‘sizlantiradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini muhokama qilishdan tiyilishi kerak.

10. Rahbarlar quyidagilarga majbur:

bo‘ysunuvidagi davlat xizmatchilariga professionalizm, halollik, xolislik va adolatlilikda o‘rnak bo‘lish;

jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

davlat xizmatchilarini qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishni talab qilmaslik;

kadrlarni mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash, tayinlash yoki tavsiya etishga yo‘l qo‘ymaslik;

jamoada guruhbozlik va favoritizm (ayrim xodimlarni yaqin olish va qo‘lab-quvvatlash) ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning oldini olish;

davlat xizmatchilarining faoliyatiga baho berishda qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilish;

davlat xizmatchilari tomonidan korrupsiya va boshqa suiiste’molchiliklar sodir etilishining oldini olish choralarini ko‘rish;

bo‘ysunuvidagi davlat xizmatchilarini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish choralarini ko‘rish;

vakolati doirasida shartnomalar tuzish, tanlovlar o‘tkazish yoki rozilik berish masalalariga xolis, adolatli va qonuniy yondashish.

11. Rahbarlar bo‘ysunuvidagi davlat xizmatchilariga qo‘pol muomalada bo‘lishi, haqorat qilishi, shaxsiyatiga tegishi, ularga asossiz tanbeh berishi yoki ayblashi hamda kamsitishi mumkin emas.

4-bob. Xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalari

12. Davlat xizmatchilari ishdan bo‘sh vaqtlarida umumqabul qilingan axloq normalariga rioya qilishlari va ularga zid bo‘lgan xulq-atvor va xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari shart.

13. Davlat xizmatchilari ishdan tashqari vaqtda quyidagilarga majbur:

milliy urf-odat, qadriyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbozlik, maishatbozlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

rasmiy e’lon qilingan ma‘lumotlardan tashqari davlat xizmati faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilmaslik;

jamoat joylarida (kafe, restoran va boshqa ko‘ngilochar maskanlarda) o‘zini tutish qoidalariga rioya etish, atrofdagilarning e‘liborini tortuvchi ortiqcha va salbiy harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni

sodir etmaslik, mazkur noqonuniy harakatlarga boshqalarni jalb etmaslik yoki da'vat qilmaslik;

xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan idora va tashkilotlar rahbar va xodimlaridan, boshqa mansabdor shaxslaridan qimmatbaho sovg'a olmaslik;

xizmat guvohnomalarini saqlash va foydalanish tartibiga qat'iy rioya etish, ulardan xizmatga aloqador bo'lmagan holatlarda foydalanmaslik, shu jumladan, vakolatli shaxslarga xizmat guvohnomasini ko'rsatib, mavqeyini suiiste'mol qilmaslik;

xizmat avtotransport vositalaridan xizmat faoliyatidan tashqari holatlarda shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanmaslik;

ish faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ishga aloqador bo'lmagan boshqa shaxslar ishtirokida muhokama qilmaslik;

shaxsiy transport vositalaridan foydalanishda belgilangan tartibga amal qilish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish;

tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan (pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari) shug'ullanmaslik, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

o'zi faoliyat yuritgan va yuritayotgan davlat organlari va tashkilotlari hamda xalq ta'limi tizimiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlardan tiyilish;

tashqi ko'rinishini belgilangan me'yorlar doirasida saqlash, kamtarona kiyinish, atrofdagilarning e'tiborini o'ziga ortiqcha jalb qiladigan tarzda kiyinmaslik.

5-bob. Jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlarga oid odob-axloq qoidalari

14. Davlat xizmatchilari ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilishi, vazirlik hamda uning tizimidagi tashkilot va muassasalarning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko'maklashishi kerak.

15. Xalq ta'limi sohasidagi Davlat siyosati yoki vazirlik hamda uning tizimidagi tashkilot va muassasalar faoliyati to'g'risidagi ommaviy bayonotlar vazirlik, hududiy bo'linmalar rahbarlari yoki mazkur yo'nalish bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

16. Quyidagi hollarda ommaviy bayonot berilishi mumkin emas:

ommaviy bayonot matni va mazmuni davlat siyosati yoki vazirlik faoliyatiga aloqador bo'lmasa;

ommaviy bayonotda keltiriladigan axborotlar davlat sirlari bilan bog'liq bo'lsa;

ommaviy bayonot boshqa davlat organlari va tashkilotlari nufuzini pasaytirish yoki ularning mansabdor shaxslarini kamsitishga yo'naltirilgan bo'lsa.

17. Xalq ta'limi tizimida jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida jamoatchilik tomonidan vazirlik hamda uning tizimidagi tashkilot va muassasalar faoliyatiga oid ayblov yoki tanqid bildirilgan taqdirda, vazirlik yoki uning tizimidagi tashkilot va muassasalar unga nisbatan bildirilgan ayblov yoki tanqidga ommaviy izoh yoxud raddiya berishi lozim.

18. Agar ommaviy bayonotda fuqarolarning sha'ni hamda qadr-qimmatini kamsitadigan iboralar bo'lsa, davlat xizmatchisi o'z fikrlarining yanglishligi yoki noto'g'riligini tan olishi hamda sha'ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro'siga daxl qilingan fuqarodan, agar qonun hujjatlarida boshqa oqibatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, kechirim so'rashi shart.

6-bob. Xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinish va kiyinish uslubiga oid odob-axloq qoidalari

19. Davlat xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubi fuqarolarning vazirlik faoliyatiga hurmatini, shu jumladan, vazirlikning nufuzini oshirishga xizmat qilishi kerak.

20. Davlat xizmatchisining tashqi ko'rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, xizmat majburiyatlarini bajarishi vaqtida fuqarolarning vazirlikka nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi va rasmiylik, xolislik, kamtarlik va intizomni namoyon etishi lozim.

21. Davlat xizmatchisi kiyinish uslubining sipoligi va kamtaronaligi bilan ajralib turishi, toza va orasta kiyinishi, saranjom-sarishta yurishi, sochlarni ozoda va tartibga keltirilgan holda tutishi, haddan tashqari ochiq va kalta kiyim kiymasligi, ish joyida ortiqcha g'ashga tegadigan kiyim-bosh kiymasligi, bezaklar va boshqa aksessuarlar taqmasligi va me'yordan oshmagan pardoz bilan yurishi, erkaklar sochlarining uzunligi me'yordan oshmasligi, ayollar ixcham zirakdan tashqari boshqa taqinchoqlarni taqmasligi lozim.

7-bob. Manfaatlar to'qnashuvi

22. Davlat xizmatchilari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.

23. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o'zining rahbarini darhol xabardor qilishi shart.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishga majbur.

8-bob. Davlat xizmatchilarining manfaatini himoya qilish

24. Davlat xizmatchilarni xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga xilof boshqa xatti-harakatlardan himoya qilish vazirlik hamda uning hududiy bo'linmalari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga to‘sqinlik qilish, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga og‘dirishga qaratilgan murojaatlar, shuningdek, hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan qonunbuzilishlar haqida xabar bergan xodimlarni vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va xavf-xatarlardan himoya qilish choralari ko‘riladi.

9-bob. Odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish

26. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat vazirlik hamda uning hududiy bo‘linmalarining Nazorat-huquqiy xizmati, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (kadrlar bo‘limi) yoki Odob-axloq komissiyalari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

27. Vazirlik hamda uning hududiy bo‘linmalarida lavozimga tayinlangan davlat xizmatchilari Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (kadrlar bo‘limi) tomonidan mazkur Odob-axloq qoidalari bilan tilxat asosida imzo qo‘ydirgan holda tanishtiriladi.

28. Mazkur Odob-axloq qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi vazirlik hamda uning hududiy bo‘linmalari rahbarining ko‘rsatmasiga muvofiq Odob-axloq komissiyalari tomonidan o‘tkaziladi.

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibi vazirlik tomonidan belgilanadi.

10-bob. Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik

29. Davlat xizmatchilari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik holati ularga nisbatan axloqiy va intizomiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

30. Odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlik uchun Odob-axloq komissiyasi tomonidan davlat xizmatchilariga quyidagi axloqiy ta’sir choralari qo‘llaniladi:

ogohlantirish;

uzr so‘rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

vazirlik hamda uning hududiy bo‘linmalarining kollegial yig‘ilishlarida tanbeh berish.

31. Odob-axloq komissiyasi davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta’sir chorasini qo‘llash uchun davlat organlari va tashkilotlari rahbariga taqdimnoma kiritishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi odob-axloq qoidalari hududiy bo‘linmalar rahbari tomonidan buzilgan taqdirda, ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan takliflarni yuqori turuvchi boshqaruv organi rahbariga yuboradi.

32. Davlat xizmatchisining Odob-axloq qoidalarini buzishi ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

11-bob. Yakuniy qoida

33. Odob-axloq qoidalarida aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022-yil 21-oktabrdagi
329-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom Xalq ta’limi vazirligida Odob-axloq komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya vazirlikning davlat fuqarolik xizmatchilari (keyingi o‘rinlarda — davlat xizmatchilari) tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishini nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarini oldini olish va odob-axloq qoidalariga rioya etish bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish maqsadida tuziladi.

3. Komissiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilari odob-axloqining Namunaviy qoidalariga, ushbu nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya Komissiya raisi, kotibi va a’zolaridan iborat bo‘lib, umumiy soni besh nafardan kam bo‘lmasligi va toq sonda bo‘lishi lozim.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan davlat xizmatchilari kiritiladi.

Komissiya tarkibi Xalq ta‘limi vaziri buyrug‘ bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;

davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalarini ko‘rib chiqish, xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

davlat xizmatchilari o‘rtasida axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning davlat xizmatchilarining xatti-harakatlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqish;

davlat xizmatchilarining sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi holatini tahlil qilish, natijalari haqida Xalq ta’limi vaziri va jamoatchilikni xabardor qilib borish.

6. Komissiya o‘z vakolatlari doirasida:

davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydi;

davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalari bilan bog‘liq masalalarini ko‘rib chiqish jarayonida zarur axborotni so‘rab oladi;

ko‘rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun Komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalb qiladi;

odob-axloq qoidalariga oid masalalar yuzasidan davlat xizmatchilariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi;

zarur hollarda, Komissiyada ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha davlat xizmatchisini intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan Xalq ta’limi vaziriga taklif kiritadi.

7. Komissiya vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

8. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish ushbu nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

9. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o‘tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o‘tkaziladi. Zarur bo‘lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

10. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo‘qligida esa, uning topshirig‘iga binoan Komissiya raisi o‘rinbosarlaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnoma yuritiladi, u raislik qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

11. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

12. Komissiyaning navbatdagi majlisi to'g'risida uning raisi Komissiya a'zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek, majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

13. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

14. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

Komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

davlat organi va tashkilotining tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlarda Komissiya nomidan ish yuritadi;

Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi;

har yili Xalq ta'limi vaziriga Komissiya faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi.

15. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

16. Komissiya a'zosi:

Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko'rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek, ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko‘rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma’lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

Komissiya qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda o‘z nuqtai-nazarini bayon etishga haqli.

17. Komissiyasi a’zosi Komissiya majlisida hozir bo‘lishi va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a’zosi Komissiya majlisida hozir bo‘lish imkoni bo‘lmaganda Komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

18. Komissiya majlisida ko‘rilayotgan masalalar Komissiya raisi, kotibi va a’zolariga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan taqdirda o‘zini o‘zi rad qilishi shart.

4-bob. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarini ko‘rish

19. Komissiya Vazirning nazorat-huquqiy xizmati, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda muntazam ravishda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishini oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

davlat xizmatchilarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

davlat xizmatchilarini “halollik vaksinasi” bilan emlash, ya’ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma’rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish;

vazirlikda taniqli ziyolilar, ijodkorlar, ma’naviyat va ma’rifat sohasining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari, o‘z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

vazirlikda xodimlarining kasbiy va boshqaruv ko‘nikmalari o‘sishini, shuningdek, ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta’minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta’minlash;

davlat xizmatchilarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma’naviy rivojlanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va huquqiy o‘qishlar tashkil etish;

yangi ishga qabul qilingan davlat xizmatchilarini odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilish borasida stajirovkadan o‘tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilish;

davlat xizmatchilarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o‘z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib berish.

20. Komissiya davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o‘z faoliyatini Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalari asosida olib boradi.

21. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari Komissiya tomonidan vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari hamda kasaba uyushmalari qo‘mitasi bilan birgalikda tashkil etiladi.

22. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligi yil yakunlari bo‘yicha o‘tkaziladigan Komissiya yig‘ilishida muhokama qilinadi.

5-bob. Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish tartibi

23. Komissiya davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishlari bilan bog‘liq masalalarni:

Xalq ta‘limi vazirining topshirig‘iga ko‘ra;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan;

davlat xizmatchilarning, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan;

o‘z tashabbusi bilan ko‘rib chiqadi.

24. Komissiya majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilayotgan davlat xizmatchisi, zarur bo‘lgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi. Komissiya majlisining vaqti va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

25. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala o‘qib eshittiriladi;

Xalq ta‘limi vazirining topshiriq yoki davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalari buzilganligi to‘g‘risidagi murojaat o‘qib eshittiriladi;

odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlikda ayblanayotgan davlat xizmatchisi va murojaatchilarning tushuntirishlari eshitiladi.

26. Davlat xizmatchisi o‘zining huquqi, sha’ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro‘siga daxl qiladigan murojaat bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.

27. Majlis yakuni bo‘yicha Komissiya davlat xizmatchisining harakatlarida odob-axloq qoidalarining buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

28. Odob-axloq qoidalari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan davlat xizmatchilariga quyidagi axloqiy ta’sir choralari qo‘llaniladi:

– ogohlantirish;

– uzr so‘rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish;

– vazirlikning kollegial yig‘ilishlarida tanbeh berish.

29. Komissiya davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta’sir chorasini qo‘llash uchun Xalq ta’limi vaziriga taqdimnoma kiritishi mumkin.

30. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi:

– komissiyada oldin ko‘rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;

– anonim murojaatlar;

– qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.

31. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilgan davlat xizmatchisiga va Xalq ta’limi vaziriga yozma ravishda ma’lum qiladi.

32. Komissiya odob-axloq qoidalari hududiy boshqarma boshlig‘i tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan Xalq ta’limi vaziriga kiritadi.

33. Komissiyaning qarori ustidan Xalq ta’limi vaziriga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

34. Davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi haqidagi murojaat uning tashabbuskori tomonidan Komissiya qarori qabul qilinguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

35. Taraflar yarashgan, shuningdek, davlat xizmatchisi o‘z xohishi bilan murojaatchidan oshkora uzr so‘ragan hollarda, unga nisbatan ta’sir choralari qo‘llanilmasligi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi
odob-axloq komissiyasi
to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil qilish va davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish
SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
I. Komissiya faoliyatini tashkil etish			
1-bosqich	Xalq ta’limi vaziri	1.Vazirlikda Odob-axloq komissiyasini (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) Komissiya raisi, kotibi va a’zolaridan iborat tarkibda, umumiy soni kamida besh nafardan kam bo‘lmagan miqdorda toq sonda shakllantirish. 2.Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan davlat xizmatchilarini kiritish. 3.Komissiya tarkibini tasdiqlash.	Ikki hafta muddatda
		4. Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.	Zaruratga ko‘ra
	Komissiya raisi	Komissiya ishini tashkil etadi, komissiya majlislarini chaqiradi va o‘tkazadi majlisiga raislik qiladi. Komissiya nomidan ish yuritadi, Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to‘g‘risidagi axborot bilan so‘zga chiqadi. Xalq ta’limi vaziriga Komissiya faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.	Ma’lumotlar kiritilgan vaqtdan boshlab Har yili yil yakuni bo‘yicha

2-bosqich	Komissiyaning kotibi	Kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi. Komissiyaning a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi. Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi, navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi. Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.	Majlisdan kamida ikki kun oldin Majlisdan keyin bir kun muddatda

II. Odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarini ko'rish			
1-bosqich	Komissiya Vazirlikning tarkibiy bo'linmalari Vazirlikning kasaba uyushmasi qo'mitasi	Komissiya muntazam ravishda davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishining oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi: davlat xizmatchilarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog'lom ma'naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish; davlat xizmatchilarini "halollik vaksinasi" bilan emlash, ya'ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish; vazirlikda taniqli ziyolilar, jjodkorlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasi, shuningdek, diniy sohaning ko'zga ko'ringan namoyondalari, o'z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish; vazirlikda xodimlarining kasbiy va boshqaruv ko'nikmalari o'sishini, shuningdek, ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy oshirish ishlarini ta'minlash; davlat xizmatchilarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy va huquqiy o'qishlar tashkil etish; yangi ishga qabul qilingan davlat xizmatchilarini odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish borasida amaliyotdan o'tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qilish; davlat xizmatchilarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o'z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shar-sharoit yaratib berish.	Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalari asosida

2-bosqich	Komissiya	Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligini Komissiya yig‘ilishida muhokama qiladi.	Har yili yakunlari bo‘yicha
III. Odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish			
1-bosqich	Komissiya	Komissiya davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini buzilishlari bilan bog‘liq masalalarni: Xalq ta’limi vazirining topshirig‘iga ko‘ra;	Zaruratga ko‘ra
		huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan; davlat xizmatchilarning, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan; o‘z tashabbusi bilan ko‘rib chiqadi.	
2-bosqich	Komissiya raisi va a’zolari	Komissiya majlisida: kun tartibidagi masala o‘qib eshittiriladi; Xalq ta’limi vazirining topshirig‘i yoki davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalari buzilganligi to‘g‘risidagi murojaat o‘qib eshittiriladi; odob-axloq qoidalariga rioya etmaganlikda ayblanayotgan davlat xizmatchisi va murojaatchilar tushuntirishlari eshitiladi.	Majlis o‘tkaziladigan kun
	Davlat xizmatchisi	O‘zining huquqi, sha’ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro‘siga daxl qiladigan murojaat bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.	

3-bosqich	Komissiya	1.Majlis yakuni bo'yicha davlat xizmatchisining harakatlarida odob-axloq qoidalarining buzilishi faktining mavjudligini yoxud mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi. 2. Odob-axloq qoidalari buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda davlat xizmatchilariga quyidagi axloqiy ta'sir choralari qo'llaydi: ogohlantirish; uzr so'rash yoki rasmiy uzrnoma keltirishni talab qilish; davlat organi va tashkilotining kengaytirilgan majlisida tanbeh berish. 3. Davlat xizmatchisiga nisbatan intizomiy ta'sir chorasini qo'llash uchun Xalq ta'limi vaziriga taqdimnoma kiritishi mumkin. 4. Qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o'ziga nisbatan masala ko'rib chiqilgan davlat xizmatchisiga va Xalq ta'limi vaziriga yozma ravishda ma'lum qiladi.	Majlis o'tkaziladigan kun
4-bosqich	Komissiya	Odob-axloq qoidalari hududiy boshqarma boshlig'i tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko'rish masalasi yuzasidan takliflarni Xalq ta'limi vaziriga kiritadi.	Zaruratga ko'ra
5-bosqich	Davlat xizmatchisi	Komissiyaning qarori ustidan Xalq ta'limi vaziriga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.	Zaruratga ko'ra

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2022 yil 21-oktabrdagi
329-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Xaiq ta’limi vazirligi odob-axloq komissiyasining
TARKIBI

1. B.Saidov, Vazir, komissiya raisi
2. U.Sharifxodjayev, Vazirning birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
3. R.Karimjonov, Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
4. I.Djurayev, Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
5. V.Rajapov, Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari
6. T.Komilov, Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi o‘rinbosari

Komissiya a’zolari

7. N.Mamaraimova, Vazir maslahatchisi
8. O.Egamberdiyev, Ijro etuvchi apparat boshlig‘i
9. M.Mirahmedov, Yuridik bo‘lim boshlig‘i
10. O.Muxtorov, Vazirning nazorat-huquqiy xizmati boshlig‘i
11. B.Xo‘jaqulov, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i
12. J.Fozilov, Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
13. L.Saliyev, Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish sho‘basi mudiri
14. M.Karabayev, Vazirlik kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi
15. O.Ibragimov, Vazirning nazorat-huquqiy xizmati bosh mutaxassisi, komissiya kotibi

Izoh:

Komissiya a’zolari tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o‘tgan taqdirda tegishli lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Komissiya raisi tomonidan faoliyati ko‘rib chiqilayotgan xodimning bevosita rahbari ham Komissiya tarkibiga jalb etilishi mumkin.

Bosh muharrir:
Maxmudov Sarvar Yuldashevich
Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O'zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro'yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to'liq, o'zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog'oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© "Xalq ta'limi axborotnomasi", 2023.